

OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKDA BOSHLANG'ICH TA'LIMGA TAYYORGARLIKNI SAMARALI TASHKIL ETISH

Mirzabekova Gumshagul Xo'jabekovna,

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim

kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: gumshagul@mirzabekova@gmail.com

Annotatsiya. Maktabgacha yoshdagi bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorlashda ota-onalar bilan samarali hamkorlik o'ta muhimdir. Ushbu maqolada ota-onalar va maktab o'rtasidagi o'zaro aloqaning ahamiyati, hamkorlik shakllari va ularni tashkil etishning innovatsion usullari tahlil qilinadi. Bolaning maktabga psixologik, ijtimoiy va bilim jihatdan tayyor bo'lishi uchun oilaviy muhit, tarbiya uslubi hamda pedagogik yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi zarurligi asoslab beriladi. Tadqiqotda ota-onalarni pedagogik jarayonga jalb qilishning samarali yo'llari, muammoli vaziyatlar va ularni bartaraf etish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajriba asosida birgalikda tashkil etiladigan dastur va tadbirlarning bosqichlari yoritiladi. Maqola boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ota-onalar bilan hamkorlik, maktabgacha yosh, tayyorgarlik, pedagogik jarayon, oilaviy tarbiya, ijtimoiy moslashuv, innovatsion yondashuv, psixologik tayyorgarlik, o'zaro aloqa, xorijiy tajriba, amaliy tavsiyalar.

Аннотация. Эффективная подготовка детей к начальному обучению невозможна без тесного сотрудничества с родителями. В данной статье рассматривается значение взаимодействия между семьёй и школой, формы сотрудничества и инновационные методы его организации. Особое внимание уделяется роли семейной среды, стиля воспитания и педагогических подходов в обеспечении психологической, социальной и познавательной готовности ребёнка к школе. Анализируются эффективные пути вовлечения родителей в образовательный процесс, механизмы решения проблемных ситуаций, а также положительный зарубежный опыт. Статья содержит практические рекомендации, направленные на повышение качества начального образования.

Ключевые слова: начальное образование, сотрудничество с родителями, дошкольный возраст, подготовка, образовательный процесс, семейное воспитание, социальная адаптация, инновационные подходы, психологическая готовность, взаимодействие, зарубежный опыт, практические рекомендации.

Abstract. Effective preparation for primary education requires close collaboration with parents. This article explores the importance of interaction between families and schools, the forms of cooperation, and innovative methods of organizing such collaboration. It emphasizes the role of the family environment, parenting style, and pedagogical approaches in ensuring the child's psychological, social, and academic readiness for school. The study examines practical ways to involve parents in the educational process, strategies for addressing challenges, and insights from international best practices. The article also includes practical recommendations aimed at improving the quality of primary education.

Keywords: primary education, parental cooperation, preschool age, preparation, educational process, family upbringing, social adaptation, innovative approaches, psychological readiness, interaction, international experience, practical recommendations.

Kirish. Yangi davrda ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar jamiyat hayotining barcha sohalarida ro'y berayotgan o'zgarishlar, islohotlar bilan bevosita bog'liq. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishi, bilim olishga

bo'lgan qiziqishi va intilishini yuzaga chiqarishdagi muhim pog'ona bo'lib, bu jarayonga tayyorgarlik masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bola maktabga ilk qadam qo'yar ekan, bu bosqichda faqat pedagoglarning emas, balki ota-onalarning ham faol ishtiroki, yondashuvi va yordami zarur bo'ladi. Chunki bolaning ilk bilimga bo'lgan munosabati, o'quv muhitiga moslashuvi, o'zini erkin tutishi ko'p jihatdan oiladagi tarbiya, muhit va ota-onalarning pedagogik savodxonligiga bog'liq. Shu boisdan ham maktab va oilaning o'zaro hamkorligi boshlang'ich ta'limga tayyorgarlik jarayonida alohida o'rin tutadi. Maqolada aynan mana shu hamkorlikni samarali tashkil etish masalasi, uning shakllari, usullari, ijtimoiy-psixologik va pedagogik jihatlari keng yoritiladi. Ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb etishning innovatsion yo'llari, amaliy tajribalari, chet davlatlar tajribasi va ularning bizdagi sharoitga moslashtirilgan variantlari tahlil etiladi. Maqsad – boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, bolalarning maktabga tayyorlanish darajasini yaxshilash, oilaning bu boradagi ishtirokini kuchaytirishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich ta'limga tayyorgarlik va ota-onalar bilan hamkorlik masalasi pedagogika sohasida yetarlicha o'rganilgan bo'lib, M. Sh. Jo'raqulova hamda N. O. Karimova asarlarida bu jarayonning nazariy va metodik asoslari keng yoritilgan. Tadqiqotlarda bolalarning maktabga moslashuvida oilaviy muhit, tarbiya uslubi va pedagogik yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi muhim omil sifatida qayd etiladi. Shuningdek, G. I. Xasanboyeva va Z. R. Axmedova tomonidan olib borilgan izlanishlarda psixologik-pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari chuqur tahlil qilingan. Xorijiy tajribalar esa ota-onalarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish orqali boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tahliliy, qiyosiy va kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlik holatini o'rganish maqsadida suhbat va so'rovnomma usullari qo'llanildi. Olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlillar va natijalar. Boshlang'ich ta'limga tayyorgarlikni ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etish – nafaqat ta'lim sifati, balki jamiyatimiz kelajagi bo'lgan farzandlar tarbiyasiga bo'lgan yondashuvning muhim ko'rinishidir.

Boshlang'ich ta'limga tayyorgarlik – bu bolalarning maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, psixologik va ijtimoiy holatga tayyor bo'lishlarini ta'minlaydigan muhim bosqichdir. Bu jarayonni faqatgina ta'lim muassasalari emas, balki oila – ya'ni ota-onalar ham faol tarzda tashkil etishi kerak. Ota-onalar bilan samarali hamkorlik o'rnatish boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Bola maktabga qadam qo'yayotgan davrda unda turli xil emotsional holatlar, qo'rquv, ishonchsizlik, ortiqcha hayajon yoki ijtimoiy moslashuv muammolari kuzatiladi. Bunday holatlarning oldini olishda oila va pedagoglar o'rtasidagi uzviy aloqaning o'rni beqiyosdir. Bolaning o'quv faoliyatiga ijobiy munosabatda bo'lishi,

sinfga moslasha olishi, o'zini erkin his qilishi – bularning barchasi ota-onaning farzandi bilan shug'ullanish darajasi va sifatiga bog'liq.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limga tayyorgarlikni samarali tashkil etishda quyidagi asosiy yo'nalishlar muhim hisoblanadi:

1. Psixologik tayyorgarlik – bolaning maktab muhitiga moslashishi uchun unga yangi sharoit, o'qituvchi, sinfdoshlar bilan muloqot qilish ko'nikmalari shakllantirilishi lozim. Bu borada ota-onalar bilan psixologlar hamkorligida treninglar, suhbatlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

2. Bilim va ko'nikma tayyorgarligi – bolada elementar savodxonlik, hisoblash, tinglab tushunish, e'tibor va xotira kabi muhim ko'nikmalarni shakllantirishda ota-onalar tomonidan doimiy mashg'ulotlar olib borilishi lozim.

3. Ijtimoiy moslashuv – maktabga borish orqali bola jamiyatga faol kirib boradi. Bu bosqichda oilaning farzand bilan ochiq muloqoti, ijtimoiy normalar, xulq-atvor qoidalari haqida suhbatlar olib borishi, jamoaga moslashishiga ko'maklashadi.

4. Ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish – ko'plab ota-onalar farzandining rivojlanish bosqichlaridan bexabarligi sababli noto'g'ri yondashuvlarga yo'l qo'yadi. Shu sababli pedagoglar uchun tashkil etiladigan seminar, davra suhbatlari orqali ota-onalarning bilim va ko'nikmalarini boyitish zarur.

5. Hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish – maktablar tomonidan maxsus "Oila va maktab" dasturlari ishlab chiqilishi, oila a'zolarining ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlash muhimdir. Bunga oilaviy tadbirlar, sinf yig'ilishlari, ota-onalar kuni, ochiq eshiklar haftaligi kabi shakllarni kiritish mumkin.

Bundan tashqari, xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim rivojlangan mamlakatlarda (masalan, Finlyandiya, Yaponiya, Norvegiya) boshlang'ich ta'limga tayyorgarlik jarayoniga ota-onalar maxsus treninglar, psixologik tayyorgarlik dasturlari va hatto qisqa muddatli kurslar orqali jalb etiladi. Ularning ta'lim jarayonida faol ishtiroki bolalarning maktabga tayyorlik darajasini sezilarli oshirgan. Shu jihatdan, O'zbekistonda ham ota-onalar bilan ishlashning huquqiy asoslarini mustahkamlash, har bir maktabgacha ta'lim muassasasida va boshlang'ich maktablarda "ota-onalar bilan ishlash bo'yicha mas'ul pedagog" lavozimini joriy etish dolzarb hisoblanadi. Bu mas'ul pedagoglar orqali o'zaro aloqa tizimli va doimiy xarakter kasb etadi. Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, boshlang'ich ta'limga tayyorgarlik jarayonini samarali tashkil etishda ota-onalar bilan uzviy hamkorlik zarur va muhim omil hisoblanadi. Bola maktabga tayyorlanayotgan davrda nafaqat bilim jihatdan, balki psixologik, emotsional va ijtimoiy jihatdan ham muvozanatli bo'lishi kerak. Bunday holat esa faqatgina maktab emas, balki oila bilan birgalikdagi faoliyat natijasida yuzaga keladi.

Ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi ochiq, tizimli va doimiy muloqot – bolaning maktab hayotiga muammosiz moslashuvini, ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlaydi. Shuningdek, ota-onalarning pedagogik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, ularning

farzand tarbiyasidagi ishtirokini yanada samarali qiladi. Bu esa nafaqat boshlang'ich ta'lim sifatini, balki butun jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tavsiyalar:

1. Maktab va oila o'rtasidagi hamkorlik tizimini mustahkamlash: Har bir maktabda ota-onalar bilan ishlash bo'yicha reja asosida ish olib borilishi zarur.

2. Ota-onalar uchun pedagogik seminarlar va treninglar tashkil etish: Farzandining rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumotga ega bo'lgan ota-ona unga to'g'ri yondashishni biladi.

3. Oilaviy tadbirlar va darslardan tashqari faoliyatlarni yo'lga qo'yish: Ochiq eshiklar kuni, ota-onalar kuni, birgalikda o'tkaziladigan ijodiy mashg'ulotlar samarali natijalar beradi.

4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida maktabga tayyorgarlik bo'yicha alohida dasturlarni joriy etish: Bunday dasturlar ota-onalar ishtirokini ham ko'zda tutgan bo'lishi lozim.

5. Psixologik xizmatni kuchaytirish: Har bir boshlang'ich sinfda bola va ota-onalar bilan ishlaydigan psixologlar faoliyati yo'lga qo'yilishi kerak.

6. Xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish: Chet mamlakatlardagi "oilaviy ta'lim" modelidan samarali elementlarni olib, mahalliy sharoitga moslashtirish tavsiya etiladi. Yakunda aytish mumkinki, boshlang'ich ta'limga puxta tayyorgarlik va bunda ota-onalar bilan tashkil etiladigan samarali hamkorlik – yosh avlodning barkamol shaxs bo'lib shakllanishida poydevor vazifasini bajaradi. Shu boisdan, mazkur yo'nalishda olib boriladigan ishlarni tizimli, izchil va ilmiy asosda yo'lga qo'yish zarur.

Xulosa. Boshlang'ich ta'limga tayyorgarlikni ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etish – zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas va muhim tarkibiy qismidir. Zero, maktabga ilk qadam qo'yayotgan bola uchun oilaning e'tibori, qo'llab-quvvatlashi va tarbiyaviy yondashuvi ularning bilim olishga bo'lgan munosabatini, o'zini tutish madaniyatini va jamiyatga moslashuv darajasini belgilaydi. Pedagog va ota-ona o'rtasida yo'lga qo'yilgan samarali, ochiq va doimiy muloqot – bolada maktabga nisbatan ijobiy motivatsiya, ishonch va rag'bat uyg'otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'raqulova, M. Sh. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 232 b.
2. Karimova, N. O. Ota-onalar bilan ishlash metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 176 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
4. Xasanboyeva, G. I., & Axmedova, Z. R. Boshlang'ich ta'limga tayyorgarlikning psixologik-pedagogik asoslari. – Toshkent: Ilm ziyo, 2019. – 190 b.
5. Oilaviy ta'lim modelini joriy etish tajribalari. "Pedagogik izlanishlar" jurnali. – 2022. – №4. – B. 45–50.